


Shoxruhbiy ibn Ashurbiy



Shoxruhbiy

Shoxruhbiy ibn Ashurbiy

(? – 1721),

(1709-1721)

Keyinchalik Qo'qon xonligi deb atalgan davlatning asoschisi. 1709 yilda minglar alohida beklik tuzgan chodalik din peshvolari hokimiyatini ag'dardilar va Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'lariga oldilar. **Ming qabilasi** yo'lboschchilaridan biri Shohruxbiy hukmdor deb e'lon qilindi. Shu tariqa, O'rta Osiyoda keyinchalik **Qo'qon xonligi** deb atalgan yangi davlat vujudga keldi. Ma'lumki, faqat Afrosiyob yoki Chingiz avlodidan bo'lganlar xon atalishga haqli edilar. Shohruxbiy esa Chingiz avlodi emas edi. Shuning uchun saroyga yaqin tarixchilar "**Oltin beshik**" haqidagi afsonani to'qiganlar. Unga ko'ra, go'yo Kobul tomon ketayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur endi tug'ilgan chaqalog'ini oltin beshikka belab, yo'lda qoldirib ketgan ekan. Farg'ona vodiysiga o'zbek qabila boshliqlari beshikni topib olishib, bolani katta qiladilar. Oltin beshikdagi bola voyaga yetib undan Sulton elik nomli o'g'il tug'ilgan. Undan keyingi avlod Xudoyer, Muhammad Amin, Abulqosim, Shohmastbiy (Ejmosbiy), Shohruxbiy, Hojibiy, Ashurbiy, so'ng Shohruxbiy. Shohruxbiy Oltin beshikning o'ninchi pushti hisoblangan. U ming qabilasi biylaridan edi.

Shoxruhbiyning taxtga o'tirishini Mulla Olim "**Tarixi Turkiston**" asarida qiziqarli tasvirlaydi: Targ'ovaga Jankat, Pilaxan, To'fontepa, Partak, Tepa Qo'rg'on, Qaynar va boshqa joylarning oqsoqol, aslzoda odamlari to'planib Ashurbekning o'g'li aqli, insonparvar Shoxruhbiy Ashurbek o'g'lini xon qilib saylashga qaror qiladilar. Shundan so'ng Shoxruhbiy o'rda va qo'rg'on qurish

uchun qulay joy tanlashga farmon beradi. Yuborilgan odamlar “Ko'k to'nliklar” yashaydigan ikki soy oralig'ida joylashgan hududni qulay joy, deb hisoblaydilar. Ular bu yerda ark quradilar va uning atrofida saroy va binolar qura boshlaydilar. Shundan keyin Shohruhbiyni taxtga o'tqazadilar. Xonning saylanish yilini 1709 yil deb hisoblaydilar.

Mulla Olim Shoxruhbiy 12 yil hukmronlik qilib, hukmronligining 13 yilida vafot etdi, – deb yozadi. Bundan uning 1721 yilda vafot etganligi kelib chiqadi.

Bu davlat o'z tasarrufiga Qo'qon, Isfara va Marg'ilon atroflarini qo'shib olgan edi.

Shoxruhbiydan uchta o'g'il qoladi: Abdurahimbiy, Abdukarimbiy va Shodibiy. Otasining o'rnnini o'g'illarning kattasi *Abdurahimbiy* egallaydi.

2023-11-05 19:16:36